

# **SPORT MARKETINGIDA SEGMENTLASH MUHIMLIGI VA MAQSADLI AUDITORIYANI ANIQLASH**

**Eshanqulov Baxodir Abduraxmon O'g'li**

O`zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Zamonaviy iqtisodiy tizimlar o`zaro ta'sir qiluvchi bozorlar va xo`jalik yurituvchi sub'ektlarning murakkab yig`indisi bo`lib, ularning har biri o`ziga xos funktsiyalarni bajaradi. Har qanday korxona yoki sanoat ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida o`z o`rnini egallaydi, iste'molchilarning maxsus guruhlari ehtiyojlarini qondiradi. Marketingning asosiy vazifasi esa ushbu istemolchilarning guruhlarini aniqlash va reklama va taqdimotlarni ushbu guruhlar tomonga yo`naltirishdan iborat. Kengroq ma`noda keltirib o`tadigan bo`lsak istemolchilar orasidan o`zimizga mos bo`lgan auditoriyani aniqlash hisoblanadi.

«Bozorni segmentasiyalash» tushunchasi AQSHda 1950 yillarda vujudga kelgan. Marketing tizimida bozor segmentasiyasi muhim ahamiyatga ega va bozorda talabni o`rganish yoki marketologlar atamasi bilan aytganda «iste'molchini tahlil etish»- bozorlar holatini tahlil etishdagi bиринчи bosqich hisoblanadi. U uch tarkibiy qismga bo`linadi: bozor segmentasiyasi; iste'molchi talabi sabablarini o`rganish; qondirilmagan ehtiyojlarni aniqlash. Bozor segmentasiyasi talabni qondirishga tabaqlangan holda yondashuvga, tovarlarning turi, sifati va miqdoriga ko`ra har xil talab qo`yadigan iste'molchilarни guruhlarga ajratishda turli mezonlar qo`llashga asoslanadi.

Quyida bozor segmentining asosiy me'zonlari va ularning tavsifini ko`rib o`tishimiz mumkin:


– Segmentning miqdoriy o`lchamlari. Segment miqdorining o`lchami deganda bozor sig`imi, qancha potentsial iste'molchilar borligi va ular qanday maydonlarda yashashlari tushuniladi. Bular asosida korxona qanday ishlab chiqarish quvvatiga ega bo`lishlari va sotish tarmog`ining hajmini belgilab oladilar. Bularning barchasini segmentlash statistikalari orqali aniqlashimiz mumkin

– Segmentning ochiqligi deganda korxona mahsulotini sotish uchun qancha miqdorda sotish kanallariga ega bo`lishligi, ularning quvvati, tashish va saqlash bo`yicha aniq ma'lumotlarning mavjudligi tushuniladi. Bu yo`nalishda savdo hamkorlarining soni ko`p bo`lishi korxona uchun ustunlik beradi.

– Segmentning muhimligi. Segmentning muhimligi deganda u yoki bu iste'molchilar guruhining bozor segmentida qanday o`rin egallab turganligi tushuniladi. Korxona ana shu segmentning o`rniga qarab o`z faoliyatini tashkil etadi. – Segmentning foydaliligi. Segmentning foydaliligi deganda korxonaning ma'lum bir segmentda ishlashi uning qanday rentabellik darajasini ta'minlashi tushuniladi. Korxona u yoki bu bozor segmentining foydaliligini baholashda foyda me'yori, qo`yilgan kapital hajmida daromadning hissasi, aktsiya dividentlarining miqdori va boshqa iqtisodiy ko`rsatkichlardan foydalanadi.

– Segmentning samaradorligi. Segmentning samaradorligi korxonaning mazkur tanlangan bozor segmentida ishlash tajribasi, mazkur segmentda ishlovchi xodimlarning mahsulotni siljitimiga qanchalik tayyor ekanligi kabi ko`rsatkichlar bilan baholanadi. Umuman olganda, bozorni segmentlash korxonaning muayyan bozorda samarali faoliyat ko`rsatishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Har bir istemolchi o`zining shaxsiy tanlash huquqqiga egadir. Masalan ularning har biri o`z didi, ehtiyoji, kelib chiqishi, daromadi, shaxsiy hayoti, yashash manzili, jinsi va boshqa omillarga asosan mijozlar tomonidan tanlov amalga oshiriladi. Quyida auditorianing qaysi sifatlar bilan segmentlanishini ko`rib o`tishingiz mumkin.



Buguni kundagi bozordagi raqobat muhitidan kelib chiqqan holda har bir ishlab chiqrurchi o'z tovarlarini to`g`ri tanlangan bozorda sotishga harakat qiladi. Aks holda noto`g`ri tanlangan bozor maxsulot savdosining oshmasligi va hattoki pastlashi ham mumkin.

Sport tovarlari va xizmatlari bozorida ham maqsadli auditoriyani tanlash juda muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonda xo`jalik yurutuvchi subekt bir nechta jarayonlarni tashkil etishi zarur. Eng avvalo istemolchilar hohish istaklarinin maksimal ravishda o`rganib chiqish va tahlilning foiz darajasi yuqori bo`lgan xohishlarni hisobga olishi kerak. Keying bosqichada esa tovar va xizmatning raqobatlilik darajasini maksimal ravishda oshrish va ustunligini ta`minlash zarur bo`ladi. Narx siyosatini amalga oshirishda korxona imkoniyatlari ishga solinadi. Iste`molchilar daromad darajasining tahlili ham bu o`rinda muhimdir.

Asosan ko`pgina marketing agentliklari iste`molchilar daromadi bo`yicha 3 guruhga bo`lish ma`qul deb bilishadi. Eng yuqori daromadli xaridorlar –asosan ushbu istemolchilar xaridlarning 10% ini tashkil etadi. Eng sifati hamda narxi baland bo`lgan tovarlar ularning qiziqish doirasida bo`ladi va ularning daromadi xaridni amalga ohsirishga imkon beradi. Ikkinci guruh o`rtacha daromadli iste`molchilar hisoblanadi. Bu xaridorlar bozorning eng ko`p qismini egallaydi. Ushbu guruhni ham bir nechta mayda guruhlarga ajratgan holda tahlil qilish mumkin. Tovar va xizmatlarning eng asosiy qismi ushbu bozorda sotiladi va xaridor toppish birmuncha oson. Eng so`ngi guruh minimal miqorda daromad topuvchi qatlama. Ular o`z daromadlarining tahminiy hisobda 80% qismini xarajatlar uchun sarflashadi. Ushbu xarid savatida esa asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun ishlataligan tovar va xizmatlar mavjud. Ushbu bo`limga mijozning ma`lumoti va o`z mutaxassislik doirasini ham kiritishimiz mumkin. Inson hayoti davomida o`z xaridining ko`proq qismini kasbi yuzasidan amalga oshiradi.

Psixologik omillar esa yangi reklama yaratish va ushbu reklama orqali insonning tovarga bo`lgan fikrini pozitiv tomonga o`tkazish uchun kata xizmat qiladi. Auditoriyani aniqlashda esa birinchi navbatda inson hayot tarzi, dunyoqarashi, qiziqishlari, yangiliklarga bo`lgan intilishi hisobga olinadi. Sport sanoati jihatidan oladigan bo`lsak iste`molchining qanchalik sport bilan bandligi, biror sport turini sevishi, o`zi muhlislik qiluvchi sport jamoalariga sodiqlik ko`rsatkichlari hisobga olinadi.

Keying biz hisobga olishimiz kerak bo`lgan jihatlardan biri geografik omil hisoblanadi. Bu bo`limda biz xaridorning shahar yoki qishloq hududida yashashini inobatga olishi zarur. Ayni damdag'i iqlim va iste`molchi yashash joyi iqlimi ham tovarning savdosi o'sishiga ta`sir etuvchi muhim omil sanaladi. Misol qilib keltiradigan bo`lsak qishki tovar maxsulotlarini yoz fasilda sotish savdo foizi juda past bo`lishiga olib keladi yoki aksincha.

Albatta demografik ko`rsatkichlar auditoriya tanlash doirasiga aniqlik kiritadi. Ushbu ko`rsatkichga istemolchining yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli va boshqa jihatlar kiradi. Ma`lumki har bir yosh toifasi turli hil tovar

va xizmatlar istemolchisi sanaladi. Yosh kriteriyasini to`g`ri tanlash sotuv hajmining ko`zlangan nuqtaga yetishining muhim omilidir. Albatta har bir yoshdagi insonning o`z xarid tovarlari mavjud.

Yuqoridagi ko`rsatkichlar orqali maqsadli auditoriya aniqlanadi va reklama-targ`ibot ishlari amalga oshiriladi. Ushbu ko`rsatkichlarni ahamiyatga olgan holda reklama joylashtirish o`rnlari ham aniqlashtiriladi. Maqsadli auditoriyani to`g`ri tanlagan holda reklamalarni istemolchilarga namoyish etish iste`molchilarni mijozga ya`ni yana ushbu tovar va xizmatimizning takror xaridoriga aylanuvchisiga aylanishining kalitlaridan biri deb hisoblashimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing asoslari Toshkent «Iqtisodiyot» 2019.
2. Aaron C.T. Smith Introduction to Sport Marketing.
3. N. Mo'minov., F.Azimova, O.Shmigun. Marketing asoslari Sharq Toshkent 2007.